

O'zbekiston Respublikasi nomidan
H U K M

2021 yil dekabr oyining 28 kuni Jinoyat ishlari bo'yicha Qarshi shahar sudi binosida, ochiq sud majlisida, raislik qiluvchi sudya N.Ishmuradov, sudya yordamchisi A.Nomozovning kotibligida, taraflardan: davlat ayblovchisi Qarshi shahar prokurori katta yordamchisi N.Karimov, sudlanuvchi Quldoshev Siyovush Ixtiyor o'g'li va uning advokati M.Saidolimova, sudlanuvchi SHerov Shaxzod Farhod o'g'li va uning advokati S.Tolibov hamda jabrlanuvchilarning ishtirokida, Quldoshev Siyovush Ixtiyor o'g'li va SHerov Shaxzod Farhod o'g'liga nisbatan №1-1801-2102/504-sonli jinoyat ishini ko'rib chiqdi.

Ish hujjatlariga ko'ra:

Quldashev Siyovush Ixtiyor o'g'li, 2001 yil 6 iyulda Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, ma'lumoti o'rta-maxsus, bo'ydoq, muqaddam sudlanmagan, Qarshi shahridagi "Dilkusho" nomli choyxonada oshpaz bo'lgan, G'uzor tumani G'alcha maxallasida yashaydi, 2021 yil 7 oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi JPKning 221-moddasiga asosan ushlangan, unga nisbatan qamoq olish ehtiyot chorasi qo'llanilgan, ayblov xulosasi nusxasini 2021 yil 7 noyabr kuni tergov hisbxonasi xodimidan olgan,

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 277-moddasi 3-qismining "g" bandi bilan ayblangan.

SHerov Shaxzod Farhod o'g'li, 1997 yil 11 avgustda Qarshi shahrida tug'ilgan, o'zbek, O'zbekiston fuqarosi, ma'lumoti o'rta, oilali, bir nafar farzandi bor, muqaddam sudlanmagan, Qarshi shahridagi "Dilkusho" choyxonasida musiqachi bo'lgan, Qarshi shahar, "Nuriston" MFY, 3-mitti tumani, 1-uy, 11-xonadonda yashaydi, 2021 yil 7 oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi JPKning 221-moddasiga asosan ushlangan, unga nisbatan qamoq ehtiyot chorasi qo'llanilgan, ayblov xulosasi nusxasini 2021 yil 7 noyabr kuni tergov hisbxonasi xodimidan olgan,

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 277-moddasi 3-qismining "g" bandi bilan ayblangan.

Sud sudlanuvchilar, jabrlanuvchilar va guvohning ko'rsatuvlarini tinglab, jinoyat ishi hujjatlarini o'rganib chiqib, ishda mavjud bo'lgan dalillarga baho berib, quyidagilarni

A N I Q L A D I:

Sudlanuvchi Quldashev Siyovush Ixtiyor o'g'li, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mesimasdan, 2021 yil 6 oktabr kuni soat 21:20larda Qarshi



shahar, Jayhun ko'chasi, "Oydin" mahallasi hududidagi "Dilkusho" nomli choyxonaning ziyofatlar uyushtiriladigan katta zalida mijoz sifatida o'tirgan Karabayev Farxod Abdisamatovich, Borotov Ilyos Abdiqaxorovich va Normonov Faxriddin Shoymordon o'g'ildan F.Karabayevni sigaret chekib o'tirganligi bois undan mijozlar o'tiradigan katta zalda chekmasligini so'rab, u bilan "Dilkusho" nomli choyxonasida ishlovchi SHerov Shaxzod Farxod o'g'lini shu masalada, tortishib turganligini ko'rib, ushbu tortishuvga I.Borotov va F.Normonovlarni ularni ajratish masalasida uni qo'llaridan ushlab tashganligi ko'rib, ularni oldiga borib, I.Borotov hamda F.Normonovlarni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimasdan, hech bir sababsiz, jamoat joyidagi mijozlar ko'z o'ngida qo'pol so'zlar bilan ularni haqorat qilib, choyxona ishchisi SHerov Shaxzod Farxod o'g'li bilan birgalikda tanasining duch kelgan joylariga qasddan urishib, I.Borotovga burun sohasida shilingan va o'ng tomonida yirilgan ko'rinishdagi tan jarohati yetkazishib, bezorilik jinoyatini qasddan sodir qilishgan.

Sudlanuvchi Quldashev Siyovush Ixtiyor o'g'li sudda, aybiga to'liq iqrorlik bildirib, 2021 yil 6 oktabr kuni soat 21:20larda Qarshi shahar, "Oydin" mahallasi hududida joylashgan "Dilkusho" nomli choyxonada ishlab kelishini, "Dilkusho" nomli choyxonasidagi ikkinchi qavatidagi katta zalida mijozlarga ovqat olib chiqqanida, u bilan birga ishlovchi SHerov Shaxzodni mijozlar bilan tortishayotganini, ikki kishi uning qo'llaridan tortayotganini ko'rib ular Sh.SHerovni urishmoqchi deb yo'lab, jahl ustida borib SHerov Shaxzodni qo'lini tortib turgan notanish kishini keyiyechalik uni ismi Borotov Ilyosni ajratmoqchi bo'lganini, shu vaqti Borotov Ilyos uni o'ng qo'l bosh barmog'ini tishlab olganini, shunda u Borotov Ilyosni yuz qismiga qo'lini mushti bilan bir musht urganini, keyin ularni shu yerda o'tirganlar ajratishganini, Borotov Ilyosni SHerov Shaxzod urgan urmaganini ko'rmaganini, u qilgan ishiga iqror va pushaymonligini, jabrlanuvchilardan kechirim so'raganini, jabrlanuvchilarni unga nisbatan da'vosi yo'qligini bildirib, suddan yengillik berishni so'radi.

Sudlanuvchi SHerov Shaxzod Farxod o'g'li sudda, aybiga iqrorlik bildirib, 2021 yil 6 oktabr kuni soat 21:20lar atrofida har doimgidek "Dilkusho" nomli choyxonaning yuqori qismida katta zalda musiqa qo'yib o'tirganida, uni oldiga ofitsiant Samandar ismli yigit kelib, unga "Aka anavi mijoz sigaret chekib o'tiripti, men unga sigaret chekma desam ham sigaret chekyapti, o'ziz muomalani qilib bering" deb aytganini, shunda u orqasida o'tirgan birinchi xonaga borib, sigaret chekishni to'xtatishini aytganini, shunda unga notanish keyinchalik bilishicha Karaboyev Farxod unga "Xo'p" dediyu, lekin u orqasiga qaytib kelganida ham u sigaret chekishni davom etib ko'chaga chiqmasdan sigaret chekishni da'vom ettirganini, shundan so'ng u Karaboyev Farxodni yoniga yana qaytib borib, unga zudlik bilan ko'chaga chiqishini, sigaretni bu yerga chekmasligini tushuntirganini, shundan so'ng, orqasidan unga notanish bo'lgan ikki nafar yigit kelib uni ikkala qo'llaridan ushlab orqaga tortishganini, shu vaqti u bittasini qo'li bilan itarib yuborganini, shu vaqti orqadan Kuldashv Siyovush yugurib kelib, Borotov Ilyosni yuz qismiga bir marta musht bilan



urganini, u qo'lini siltagan vaqtida Quldashev Siyovushning qo'lini ushlagan yigitlardan birining yuz qismiga qo'li tegib ketganini, shundan so'ng tashqariga chiqqishganini, shu vaqti bir yigit keyinchalik ismini bilishicha Borotov Ilyos ismli yigitni burni qonab yotganini ko'rganini, u hech kimni haqorat qilmaganini, ushbu jarohatlarni uni keyinchalik bilishicha Borotov Ilyos va Normonov Faxriddinga tan jarohati kim yetkazganini bilmasligini, u qilgan ishiga iqrор va pushaymonligini, jabrlanuvchilardan kechirim so'raganini, jabrlanuvchilarni unga nisbatan da'vosi yo'qligini bildirib, suddan yengillik berishni so'radi.

Jabrlanuvchi Normonov Faxridin Shoymordon o'g'li sudda, 2021 yil 6 oktabr kuni hamkasblari Baratov Ilyos va Karaboyev Farxod bilan ovqatlanish uchun Dilkusho choyxonasiga borishganini, choyxonaga borgach, katta zalga kirib o'ng tomondagi alohida joy qilib taxlangan kabinalarni biriga borib o'tirishganini, oldida zalda o'tirgan mijozlar uchun musiqa qo'yib beruvchi choyxona ishchisini musiqa asbob-uskunalari joylashganini, ularga shu choyxonada ishlovchi ofitsiant yigit xizmat qilganini, unga 1 kg qovurilgan tovuq go'shti, choy-non, yaxna ichimlik, salat va bir shisha "Senator" nomli aroq buyurtma qilishganini, ofitsiant ular buyurtma qilgan narsalarni olib kelgach ovqatlanib, aroq spirtli ichimlik iste'mol qilishganini, keyin yana bir shisha aroq buyurtma qilishganini, lekin ikkinchi aroqni ichishga ulgurishmaganini, choyxona zalida musiqa yangrab turganini, zal ochiq maydoniga boshqa mijozlar turib o'yin-kulgu qilishayotgani uchun xamkasbi Baratov Ilyos bilan o'ynash uchun zalni ochiq joyiga chiqib borishganini, Karaboyev Farxod o'tirgan joyida qolganini, u Borotov Ilyos bilan musiqa sadosida o'ynab turganida, ular o'tirgan joyga ismini keyin bilganini, musiqa quyuvchi, ya'ni didjey Shaxzod Farxodni oldiga borib nimalarnidir gapirib turganini ko'rib, nima gapligini bilishi uchun Ilyosdan avval ularni oldiga u borib nima gap? deb so'raganida, Shaxzod "bu yerda chekish mumkin emas" deb aytganini, shunda Farxodning qo'lida yoqilgan sigaret turganini ko'rib, u Shaxzodga "xa, bo'ldi, chekilmaydi" deb Farxodning qo'lidagi sigaretni olib qo'ymoqchi bo'lganida Shaxzod "sen arashlashma" deb aytganini, Shaxzod uni qo'li bilan surib tashlaganini, shunda Farxod o'tirgan o'rnidan turganida Shaxzod uni yoqasidan torta boshlaganini, u buni ko'rib ularni o'rtasiga tushib ajratishga uringanida Shaxzod uni chap yuziga bir musht tushirib, yuz qismiga ura boshlaganini, shu payt Ilyos ham oldiga kelganini, shunda Qo'ldoshev Siyovush kelib Borotov Ilyosni bir musht urganini, keyin choyxona ishchilar ko'paylashib Borotov Ilyosni urib tepib tashlashganini, uni sudlanuvchi SHerov Shaxzod urib, haqorat qilganligini, keyin usha yerdagi odamlar ularni ajratishganini, hozirda uni sudlanuvchilarga nisbatan da'vosi yo'qligini bildirib ko'rsatuv berdi.

Guvoh Karaboyev Farxod Abdisamatovich sudda, 2021 yil 6 oktabr kuni xamkasblari Baratov Ilyos va Normanov Faxriddin bilan ovqatlanish uchun Dilkusho choyxonasiga borishganini, choyxonaga borgach, katta zalga kirib o'ng tomondagi alohida joy qilib taxlangan kabinalarni biriga borib o'tirishganini, shunda ovqat va spirtli ichimlik buyurtma qilishganini, shunda ovqatlanib spirtli



ichmlik iste'mol qilishganini, shundan so'ng Borotov Ilyos va Normonov Faxridin chiqib musiqada o'ynashganini, u esa o'zi o'tirgan joyda sigaret chekkisi kelgani uchun yonida bo'lgan sigaretni olib uni bir donasini tutatganini, shunda buni ko'rgan, ularga xizmat qilayotgan ofitsiant yigit unga "aka, bu yerda chekish mumkin emas" deb e'tiroz bildirganini, u unga boshi bilan "xo'p, mayli" degandek imo-ishora qilganini, keyin kabina pardasini tortib qo'yganini, keyin ofitsiant yigit borib sudlanuvchi SHerov Shaxzodni chaqirib kelganini, uni oldiga kelgan SHerov Shaxzod uni sigaret chekib turganini ko'rib u ham unga "aka, bu yerda chekish mumkin emas!" deb aytganida, u SHerov Shaxzodga javoban "bo'lmasa ko'chaga chiqib cheksam bo'ladimi?" deb so'raganini, shu payt zalda o'yin-kulgu qilib turgan sheriklari Borotov Ilyos bilan Normonov Faxriddin kelib, SHerov Shaxzodni unga qo'li bilan imo-ishora qilib gapirib turganini "meni xaqorat qilayapdi" deb o'ylashib, SHerov Shaxzodni ikki yonidan o'tishib, qo'lidan ushlab "bo'ldi, bo'ldi, tashqariga chiqib chekadi" deb aytishganida, SHerov Shaxzod "senlar nimaa aralashasanlar" deb unga qo'lini mushti bilan tashlanganini, uni urmoqchi bo'lganini, lekin u o'zini orqaga tortib qolganini, buni ko'rgan Normonov Faxriddin bilan Borotov Ilyos ajratmoqchi bo'lishganini, shu payt SHerov Shaxzod Normonov Faxriddin chap yuziga bir musht urganini, keyin Borotov Ilyosga tarmashib uni urishga harakat qilganini, birdan baqir-chaqir bo'lib haqoratli so'zlar ishlatilganligini, SHerov Shaxzodni Borotov Ilyosni urganligini ko'rmay qolganini, lekin Borotov Ilyosning orqa tomonidan Quldoshev Suyovish sheriklari bilan birga kelib, Borotov Ilyosni boshini orqa tomonidan mushtlab urganini, Borotov Ilyos u tomon o'girilib ortiga qaraganida esa Quldoshev Siyovush Borotov Ilyosning burun soxasiga bir musht urganini, natijada Borotov Ilyosning burni qonab engashib qolganini, keyin IIB xodimlari yetib kelishganini, keyin IIB xodimlari ularni va choyxona ishchilarini Qarshi shahar IIBga olib kelishganini, unga hech kim tan jarohati yetkazmaganini bildirib ko'rsatuv berdi.

Jabrlanuvchi Borotov Ilyos Abdiqaxorovich sudda, 2021 yil 6 oktabr kuni xamkasblari Qoraboyev Farxod va Normanov Faxriddin bilan ovqatlanish uchun Dilkusho choyxonasiga borishganini, choyxonaga borgach, katta zalga kirib o'ng tomondagi alohida joy qilib taxlangan kabinalarni biriga borib o'tirishganini, oldida zalda o'tirgan mijozlar uchun musiqa qo'yib beruvchi choyxona ishchisini musiqa asbob-uskunalari joylashganini, ularga shu choyxonada ishlovchi ofitsiant yigit xizmat qilganini, unga ovqat va spirtlik ichimlik zakas qilishib, ovqatlanib spirtli ichimlik iste'mol qilishganini, choyxona zalida musiqa yangrab turgani uchun zal ochiq maydoniga boshqa mijozlar turib o'yin kulgu qilishayotgani uchun u sherigi Normonov Faxriddin bilan chiqib raqsga tushishganini, Karabayev Farxod esa bir o'zi stolga o'tirganini, oradan 10 daqiqalar o'tgach u o'yin-kulgu qilib turgan joyidan turib ular o'tirgan joyda bir o'zi qolgan sherigi Karabayev Farxodning oldida choyxona musiqachisi qo'lini imo-ishoralar bilan Farxodga gapirib uni xaqorat qilib turganini ko'rganini, keyin nima gapligini bilish uchun Karabayev Faxriddin bilan birga o'tirgan joyiga



borganini, shunda Karabayev Faxriddin musiqachi yigit SHerov Shaxzodga uni qo‘lidan tortib “tinchlan, bu yoqqa chiq” deb uni tartibga chaqirganini, keyin bilsa SHerov Shaxzod va Karayev Farxod sigaret chekish-chekmaslik masalasida tortishib turganini, Karabayev Farxod “bo‘ldi, sigaret chekmayman” deb qo‘lida turgan sigaretni o‘chirganini, SHerov Shaxzod ichkariga kabinaga kirib ketgani uchun u Faxriddin bilan birga uni qo‘lidan ushlab orqaga tortib “tashqariga chiq, tortishma” deb uni tartibga chaqirib turgan vaqtida, SHerov Shaxzod birdan Faxriddinga tashlanib, Faxriddinning chap yuziga bir musht tushirganini, shu payt choyxonada bo‘lgan Shaxzodning boshqa sheriklari ularni oldiga yugurib kelib, ular bilan janjal qila boshlashganini, janjal vaqtida Quldoshev Siyovush uni orqa tomonidan kelib yuziga bir musht tushirganini, shunda burun soxasida kuchli og‘riq paydo bo‘lib, burni qonab qolganini, keyin burnini ushlagancha tashqariga ko‘chaga chiqqanini, uni tashqariga chiqib ketganini ko‘rgan sherigi Faxriddin oldiga kelib, IIBning 102-raqamiga qo‘ng‘iroq qilib, janjal haqida xabar berganini, oradan 5-10 daqiqa o‘tar-o‘tmas IIB xodimlari yetib kelishganini, ularni va choyxona ishchilarini Qarshi shahar IIBga olib ketishganini, hozirda sudlanuvchilarga nisbatan da‘vosi yo‘qligini bildirib ko‘rsatuv berdi.

Bundan tashqari, sudlanuvchi S.Quldashev va Sh.SHerovning aybi, hodisa joyini ko‘zdan kechirish bayonnomasi, chizmasi, fotosuratlarini, RSTEIAM Qashqadaryo filialining 21.10.2021 yildagi 3485/429-Shar-sonli xulosasida, Borotov Ilyos Abdiqaxorovichni tanasida, “Burun suyaklarini yopiq sinib siljishi, burun usti sohasidagi ezilib yirtilgan yarasi, ikkala ko‘z atrofidagi qontalashlari” ko‘rinishidagi jarohatlari aniqlangan bo‘lib, ushbu jarohatlari shu shikastlangan sohalarga biror bir qattiq to‘mtiq jism ta‘siri natijasida yuzaga kelganligi, mavjud tan jarohatlari shikastlanuvchi sog‘lig‘ini qisqa, ya‘ni 6 kundan ortiq, ammo 21 kundan ko‘p bo‘lmagan yomonlashuviga sabab bo‘lgan yengil shikast guruhiga kirishligi ko‘rsatilgan xulosasi, jabrlanuvchilarning arizalari, hamda jinoyat ishidagi dastlabki tergovdagi so‘roq qilish bayonnomasi va to‘plangan boshqa dalillar bilan o‘z isbotini topdi.

Sud, sudlanuvchilarning dastlabki tergov jarayonida va sudda bergan ko‘rsatuvlarini ishonchga sazovorligi nuqtai nazaridan tahlil qilib, ko‘rsatuvlarni ishdagi to‘plangan dalillar bilan taqqoslab, ularning dastlabki tergov jarayonida bergan ko‘rsatuvlarini ishonchga sazovor deb baholab, asosli dalil deb topishni lozim topadi.

Sud, sudlanuvchilar S.Quldoshev va Sh.SHerovning ayb kvalifikatsiyasini muhokama qilib, tergov organi tomonidan sudlanuvchilarning harakatlari O‘zbekiston Respublikasi JK 277-moddasi 3-qismining “g” bandi bilan noto‘g‘ri kvalifikatsiya qilingan deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002 yil 14 iyundagi “Bezorilikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi Qarorining 10-bandining 3-xat boshisida” ma‘muriy javobgarlikka sabab bo‘ladigan mayda bezorilik davomida jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bunday harakatlarni



to'xtatish chorasini ko'rgan fuqaroga nisbatan qarshilik ko'rsatilsa, bunday qilmish JK 277-moddasining 3-qismining "g" bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emasligi haqida tushuntirish berilgan.

O'zbekiston Respublikasi JK 277-moddasi 3-qismining "g" bandida, jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko'rgan boshqa fuqarolarga qarshilik qilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Sudlanuvchilarni bezorilik harakatlarini oldini olish chorasini ko'rgan boshqa fuqarolarni ya'ni kimligi va qay darajada jaroxat olganligi haqida ish hujjatlarida biror bir isbotlovchi dalillar ham mavjud emas.

Bugungi kunda sudlanuvchilarni bezorilik harakatlarini oldini-olish chorasini ko'rgan qaysi fuqarolarga qarshilik ko'rsatib, ularni urib-do'pposlab, ularga turli og'irlik darajasida tan jarohati yetkazganligini aniqlash imkoniyati ham yo'q.

Bunday holatda sudlanuvchilar S.Quldoshev va Sh.SHerovning harakatlarida "jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko'rgan boshqa fuqarolarga qarshilik qilgan" kvalifikatsiya belgisi ko'rinmaydi.

Shu bois sud, sudlanuvchilar S.Qo'ldoshev va Sh.SHerovning harakatini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 277-moddasi 3-qismining "g" bandidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 277-moddasi 2-qismining "b" bandiga qayta kvalifikatsiya qilishni lozim topdi.

Sud, sudlanuvchi S.Quldashevga jazo tayinlashda, aybiga iqrор pushaymonligini, jabrlanuvchilarning unga nisbatan da'vosi yo'qligini yengillashtiruvchi holat sifatida e'tiborga olib, g'araz va past niyatda jinoyat sodir qilganligini og'irlashtiruvchi holat deb hisoblab, S.Quldashevga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 277-moddasi 2-qismining "b" bandi bilan modda sanksiyasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlashni, jazoni manzil koloniyada o'tattirishni belgilashni, jazoni boshlanish muddatini u ushlangan kundan boshlab hisoblashni belgilashni, uning ehtiyot chorasini aslicha qamoqda qoldirishni lozim topdi.

Sud, sudlanuvchi Sh.SHerovga jazo tayinlashda, aybiga iqrор pushaymonligini, jabrlanuvchilarning unga nisbatan da'vosi yo'qligini yengillashtiruvchi holat sifatida e'tiborga olib, g'araz va past niyatda jinoyat sodir qilganligini og'irlashtiruvchi holat deb hisoblab, Sh.SHerovga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 277-moddasi 2-qismining "b" bandi bilan modda sanksiyasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlashni, jazoni manzil koloniyada o'tattirishni belgilashni, jazoni boshlanish muddatini u ushlangan kundan boshlab hisoblashni belgilashni, uning ehtiyot chorasini aslicha qamoqda qoldirishni, jabrlanuvchilar I.Borotov va F.Normonovning sudlanuvchilarga nisbatan da'vosi yo'qligini qayd qilishni lozim topdi.



HUKM QILDI:

Sudlanuvchi Quldashev Siyovush Ixtiyor o'g'li O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 277-moddasi 2-qismining "b" bandida ko'rsatilgan jinoyatni sodir qilganlikda aybli deb topilsin.

Sudlanuvchi Quldashev Siyovush Ixtiyor o'g'liga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 277-moddasi 2-qismining "b" bandi bilan 1 (bir) yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlansin.

Jazo manzil koloniyalarida o'tattirilsin. Jazoni o'tash muddati 2021 yil 7 oktabr kundan boshlab hisoblansin.

Sudlanuvchi Quldashev Siyovush Ixtiyor o'g'lining qamoq ehtiyot chorasi aslicha qoldirilsin.

Sudlanuvchi SHerov Shaxzod Farxod o'g'li O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 277-moddasi 2-qismining "b" bandida ko'rsatilgan jinoyatni sodir qilganlikda aybli deb topilsin.

Sudlanuvchi SHerov Shaxzod Farxod o'g'liga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 277-moddasi 2-qismining "b" bandi bilan 1 (bir) yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlansin.

Jazo manzil koloniyalarida o'tattirilsin. Jazoni o'tash muddati 2021 yil 7 oktabr kundan boshlab hisoblansin.

Sudlanuvchi SHerov Shaxzod Farxod o'g'lining qamoq ehtiyot chorasi aslicha qoldirilsin.

Jabrlanuvchilarni sudlanuvchilarga nisbatan da'vosi yo'qligi qayd qilinsin.

Hukmdan norozi tomon, hukm e'lon qilingan kundan, sudlanuvchilar va jabrlanuvchilar esa hukm nusxasini olgan kundan boshlab, yigirma sutka ichida shu sud orqali Qashqadaryo viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining apellyatsiya instansiyasiga apellyatsiya tartibida shikoyat berishga, prokuror esa protest bildirishga haqlidirlar.

Raislik qiluvchi sudya

N.Ishmuradov

Asliga to'g'ri:

